

MADANIYAT, SIVILIZATSIYA VA INSON TARAQQIYOTI FALSAFASI

Toirov Ilhom

Farg‘ona davlat universiteti Phd, dotsent,
Fazliddinova Durdona

Farg‘ona davlat universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20524402>

Annotatsiya: Ushbu maqolada madaniyat va sivilizatsiya tushunchalarining falsafiy mohiyati, ularning tarixiy taraqqiyot jarayonidagi o‘zaro aloqadorligi hamda inson taraqqiyotiga ta’siri tahlil qilingan. Madaniyat insonning ma’naviy-axloqiy shakllanishi va ijtimoiy tajribasining yig‘indisi sifatida, sivilizatsiya esa jamiyatning texnik, iqtisodiy va institutsional rivojlanish darajasi sifatida talqin etilgan. Tadqiqotda ushbu ikki kategoriya o‘rtasidagi dialektik bog‘liqlik, ularning zamonaviy global jarayonlardagi o‘rni hamda inson kapitali rivojlanishiga qo‘shgan hissasi yoritib berilgan. Shuningdek, inson taraqqiyoti falsafasida madaniyat va sivilizatsiyaning uyg‘unligi jamiyat barqarorligi va progressning asosiy omili sifatida asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: madaniyat, sivilizatsiya, inson taraqqiyoti, falsafa, ma’naviyat, ijtimoiy rivojlanish, globallashuv, inson kapitali, qadriyatlar, jamiyat.

Insoniyat taraqqiyoti tarixiga nazar tashlar ekanmiz, jamiyat rivojlanishining asosiy omillari sifatida madaniyat va sivilizatsiya tushunchalari alohida ahamiyat kasb etadi. Har bir tarixiy davr o‘zining ma’naviy qadriyatlari, ijtimoiy munosabatlari, ilmiy yutuqlari hamda axloqiy mezonlari orqali inson kamoloti va jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichini ifodalaydi. Shu ma’noda madaniyat insonning ma’naviy olamini, tafakkuri va qadriyatlarini shakllantiruvchi omil bo‘lsa, sivilizatsiya jamiyatning moddiy-texnik, siyosiy va institutsional rivojlanish darajasini aks ettiruvchi murakkab ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi.

Globallashuv, raqamli texnologiyalar va axborotlashuv jarayonlari jadallashib borayotgan hozirgi davrda madaniyat va sivilizatsiya o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni falsafiy jihatdan tadqiq etish dolzarb ilmiy masalalardan biriga aylangan. Chunki zamonaviy taraqqiyot insoniyat oldiga nafaqat iqtisodiy va texnologik rivojlanish, balki ma’naviy qadriyatlarni asrash, milliy o‘zlikni anglash hamda umuminsoniy tamoyillarni qaror toptirish kabi muhim vazifalarni ham qo‘ymoqda. Ayniqsa, inson taraqqiyotining mazmuni va mezonlarini aniqlashda madaniyat va sivilizatsiyaning o‘rni masalasi falsafiy tafakkur markazida turadi.

Sharq va G‘arb mutafakkirlari madaniyat hamda sivilizatsiya mohiyatini turlicha talqin etgan bo‘lsalar-da, ularning barchasi inson omilini jamiyat taraqqiyotining bosh mezoni sifatida e’tirof etadilar. Jumladan, sivilizatsion yondashuv jamiyat rivojlanishini tarixiy bosqichlar, qadriyatlar tizimi va madaniy identifikatsiya bilan bog‘liq holda o‘rganishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, inson taraqqiyotini faqat moddiy farovonlik bilan emas, balki ma’naviy yetuklik, axloqiy barkamollik va madaniy tafakkur darajasi bilan baholash zarurati kuchaymoqda.

Sivilizatsiyaning mohiyatini belgilashda madaniyatning o‘rni va roli beqiyosdir. Zero, ishlab chiqarish sivilizatsiyaning moddiy asosini tashkil etsa, madaniyat ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab oladi, uning qiyofasini, o‘ziga xos rangini belgilab beradi. Hatto ishlab chiqarish kuchlariga ham o‘ziga xos xarakterlilik, ahamiyatlilik beradi. “Bu bilan madaniyat ijtimoiy hayotning tashkillashuvini, ya’ni sivilizatsiyaning shakllanishi, mavjud bo‘lishi va rivojlanishini belgilab beruvchi o‘ziga xos negiz, o‘q vazifasini o‘taydi. Demak, sivilizatsiya madaniyatning konkret namoyon bo‘lishini, uning real mavjud hayotini aks ettiradi”[1].

Madaniyat va sivilizatsiyaning o‘zaro aloqadorligini tahlil etishga sovet davrida ideologik ma’no berilar edi. Ba’zi adabiyotlarda madaniyat va sivilizatsiyaning taraqqiyoti hamda madaniyatning inqirozi to‘g‘risida ko‘p gapirilar edi. Inson ijtimoiy munosabatlarni bilib borgan, tabiiy muhitga chuqurroq kirib borgan va o‘z-o‘zini yo‘q qilish uchun haddan tashqari qudratli vositalarni yaratgani sayin madaniyat va sivilizatsiyani rivojlantirish vazifalari tobora muhim ahamiyat kasb eta boshlagan.

Madaniyat va sivilizatsiyaning asl mohiyatini chuqurroq bilish uchun uning uzoq tarixda qanday izohlanganligini bilish maqsadga muvofiqdir. Qadimgi rimliklar madaniyat va sivilizatsiyani boshqacha ta’riflaganlar. Rimliklar sivilizatsiya va tabiatning, axloq va siyosatning, tarixiy jarayon siklliligining va hokazolar nisbatining eng muhim muammolarini ijtimoiy hayot va kurashning muhim masalalari bilan bog‘liq holda hal etganlar.

Madaniyat va sivilizatsiyani haqiqatan ham chuqur tadqiq etish XVIII asr o‘rtalaridan boshlandi, xuddi shu davrga kelib bu tushunchalar fanga kiritildi. I.Kant ijtimoiy fikr tarixida birinchi bo‘lib madaniyat va sivilizatsiya tushunchalarini bir-biridan farqladi. Uning fikricha, madaniyat shubhasiz axloqiylik sohasidir, Ayni vaqtda sivilizatsiya-madaniyatning tashqi, «texnik» tipidir. Kant o‘zining 1784 yili yozgan «Umumjahon – fuqarolik planida eng umumiy tarix g‘oyasi» asarida madaniyat va sivilizatsiyaning o‘zaro munosabatini shunday tavsiflaydi: «San’at va fan tufayli biz madaniyatning eng yuqori darajasiga erishdik. Har qanday barqarorlik, bir-birimiz bilan muloyim muloqotda bo‘lish ma’nosida biz haddan tashqari sivilizatsiyalimiz. Biz o‘zimizni ma’naviy barkamol deb hisoblashimiz uchun hali bizga ko‘p narsa yetishmaydi. Aslida axloqiylik g‘oyasi madaniyatga tegishlidir, biroq bu g‘oyani tatbiq etish faqat sivilizatsiyani tashkil etadi. U shon-sharafga bo‘lgan axloqiy muhabbatga va tashqi ko‘rkamlikka o‘xshaydi»[2].

Madaniyat va sivilizatsiyani eng umumiy, abstrakt tushunish – uni umumiylikdan konkretlikka tomon bilish yo‘lidagi birinchi qadamdir[3]. Madaniyat va sivilizatsiya – murakkab dinamik hadislardir. Ularni nazariy bilishning quyidagi darajalarini ajratib ko‘rsatish mumkin: konkret-ilmiy (tarix, san’atshunoslik, lingvistika, psixologiya, matematika, biologiya va hokazo); umumiy (kibernetika, informatsiya nazariyasi, semiotika, struktur analiz va hokazo) va falsafiy.

Madaniyat va sivilizatsiya tushunchalari ijtimoiy-falsafiy tafakkur tarixida eng ko‘p muhokama qilingan kategoriyalardan biri hisoblanadi. Ushbu tushunchalar o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lsa-da, ularning mazmuni va funksional xususiyatlari bir-biridan farqlanadi. Madaniyat, avvalo, insonning ma’naviy faoliyati, qadriyatlar, urf-odatlar, axloqiy qarashlari hamda tafakkur mahsuli sifatida namoyon bo‘ladi. Sivilizatsiya esa jamiyatning moddiy-texnik taraqqiyoti, siyosiy-huquqiy tizimi va ijtimoiy institutlarining rivojlanganlik darajasini ifodalaydi. Shu bois ayrim tadqiqotchilar madaniyatni insonning ichki ma’naviy olami bilan, sivilizatsiyani esa tashqi ijtimoiy taraqqiyot bilan bog‘laydilar.

Falsafiy nuqtai nazardan qaralganda, madaniyat va sivilizatsiya o‘rtasidagi munosabat dialektik xarakterga ega. Chunki sivilizatsion taraqqiyot madaniy rivojlanishsiz mukammal shakllana olmaydi. Texnologik va iqtisodiy yuksalish ma’naviy qadriyatlar bilan uyg‘unlashmagan jamiyatlarda ijtimoiy inqiroz, axloqiy tanazzul hamda insoniylik tamoyillarining zaiflashuvi kuzatilishi mumkin. Zamonaviy globallashuv sharoitida ayrim jamiyatlarda texnokratik tafakkurning kuchayishi natijasida milliy madaniyat va ma’naviy merosning qadrsizlanishi xavfi yuzaga kelmoqda. Bu esa inson taraqqiyotini faqat moddiy mezonlar asosida baholash biryoqlama yondashuv ekanligini ko‘rsatadi.

Fan-texnika revolyusiyasi yerdan tashqaridagi sivilizatsiyalar muammosini ilgari surdi. Fan bunday sivilizatsiyalarning mavjudligi to‘g‘risida hech qanday faktga ega emas. Bu shunchaki tahmin, xolos.

Yuqoridagilardan shunday xulosaga kelish mumkin:

1) hozirgi paytda madaniyat va sivilizatsiyaning tutash nuqtalari mavjud ekanligini e‘tirof etuvchi oqim shakllandi;

2) milliy mustaqillik yillaridagina madaniyat va sivilizatsiya mohiyatini xolisona tadqiq etish imkoniyati vujudga keldi;

3) har bir xalq o‘z milliy madaniyatiga egadir, biroq bundan har bir madaniyatli xalq sivilizatsiya yaratadi, degan xulosa kelib chiqmaydi;

4) ijodkor ozchilik tanqidiy fikrlovchi shaxslar davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlansagina madaniyatli xalq turunlik va tanazzulni bartaraf etishi va sivilizatsiya yaratishi mumkin;

5) madaniyat sivilizatsiyasiz, sivilizatsiya esa madaniyatsiz shakllana va rivojlana olmaydi: sivilizatsiya madaniyat yo‘nalishi va taqdirini belgilaydi;

6) sivilizatsiyalar hech qachon o‘lmaydi, xuddi shaxslar o‘lmagani singari;

7) madaniyatlar va sivilizatsiyalar bir-biri bilan to‘qnashmaydilar, balki bir-birini boyitadilar;

8) boshqa xalqlar va mamlakatlarning milliy manfaatlarini hurmat qilish, o‘zaro manfaatli aloqalarni yo‘lga qo‘yish- sivilizatsiya va madaniyatlar hamkorligining zarur shartidir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Маданият фалсафаси. – Тошкент, 2009. – Б. 32. (- 111 б.)
2. Кант И. Соч. т. В 6-ти. Т. 6. – М.: 1966. – С.18.
3. Степин В. С. Цивилизаци и культура. — СПб. : СПбГУП, 2011.— 408 с.